Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 82

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

Zikrilla Ne’mat ijodida qush obrazi

Mexrigiyo Quvondiq qizi Jo’rayeva*

Buxoro davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Zikrilla Ne’mat she’riyatida qo‘llanilgan qush obrazining turli ramziy ma’nolari tahlil qilinadi. Shoir ijodida qush obrazi erkinlik, ozodlik, ruhiy kamolot, vatanparvarlik, insoniy orzu-intilishlar hamda ma’naviy qadriyatlarning badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida qush obrazining poetik vazifasi, uning badiiy-estetik xususiyatlari hamda shoirning individual uslubini namoyon etishdagi o‘rni yoritiladi. Kalit so‘zlar: obraz, mavzu, g‘oya, qush obrazi, o‘xshatish, ramziylik.

DOI: 10.5281/zenodo.23278683

Badiiy adabiyotning har bir adabiy turida ko‘zlangan g‘oyani ochib berish uchun turli mavzu va obrazlardan foydalaniladi. Har bir obraz asarda o‘ziga xos ma’no va vazifaga ega. Masalan, o‘zbek xalq ertaklarida turli xil hayvonlar insonlarning turli xarakter-xususiyatlarini ochib berish maqsadida xalq tomonidan asarga olib kiriladi: tulki – ayyorlik, she’r – mardlik, ayiq – tanballik va axmoqlik, bo‘ri – ochko‘zlik singari. Hayvonlar qatorida qushlar ham o‘zining ma’joziy ma’nolariga ega. Masalan, chumchuq – chaqimchilik, qaldirg‘och – xushxabar elchisi kabilarni anglatadi. Bundan tashqari, bulbul, bo‘zto‘rg‘ay, laylak, turna singari qushlar ham o‘z allegorik vazifasiga ega. Xalq dostonlarida ham qushlar obrazi uchraydi. Misol uchun, “Ravshan” dostonida mayna qushi obrazi mavjud. U Zulxumorning Ravshan asirga olinganligi tog‘risida xabar yozilgan maktubini Ravshanxonning otasi Hasanxonga yetkazadi va shundan so‘ngra Hasanxon o‘g‘lini qutqarishga yo‘l oladi. Bunda qushlarning insonga do‘st ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yana bir xalq dostoni – “Kuntug‘mish”da ham humo qushi obrazi keltiriladi. Yori va farzandlaridan ayrilib, hasrat dog‘ida kuyib, giyohvand modda qabul qilishni bishlagan No‘g‘ay shahzodasi Kuntug‘mish o‘zi sezmay Zangar eliga kelib qoladi. Bu yurtning odatiga ko‘ra, hukmdor vafot etsa humo qushini uchiriladi va u kimning boshiga qo‘nsa, o‘sha hukmdor deb tan olinadi. Qush esa uch marta ham Kuntug‘mishning boshiga qo‘nadi. Hodisadan ma’lum bo‘ladiki, xalqimiz azaldan humo qushini davlat, kuch-qudrat va hokimiyat ramzi deb hisoblagan. Gerbimizda tasvirlangan humo qushi ham ozodlik ramzidir. O‘zbek adabiy tili asoschisi Alisher Navoiy o‘zining “Lison ut-tayr” dostonida hudhud, bulbul, humoy singari qush obrazlarini keltirish orqali ish, muhabbat, marifat, aql, zakovat, idrok singari tushunchalarni ifodalaydi.

Lirik turga mansub asarlarda ham she’rning yoki nazmiy asarning g‘oyasini she‘rxonga yetkazib berish maqsadida, tabiiyki, turli obrazlardan foydalaniladi. Obraz sifatida qushlarning qo‘llalanishi ham bundan mustasno emas. Jadid shoirlarimizdan Cho‘lpon ham ushbu obrazga o‘zgacha yondashib, “Buzilgan o‘lkaga” she‘rida yurtimizni “boyqushlarga makon bo‘lganligi” ni keltirib o‘tadi. Bilamizki, boyqush xarobazorda yashaydi. Chor rossiyasi va Sovetlar hukumati bosqinidan so‘ng o‘lkaning xaroba ahvolga, aholining tushkun va sarosimali kayfiyatga tushib qolganligi bayon qilinadi. Aynan boyqush obrazi esa ushbu g‘oyani ochib berishda muhim rol egallaydi. Chunki boyqush xarobazorlarda, kimsasiz, eski uylarda hayot kechiradi. Ovloq joylarda ko‘plab uchraydi. Keyingi avlod vakillaridan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Rauf Parfi singari

shoirlar ijodida ham qush obrazlaridan ko‘p qo‘llaniladi. Xususan, Omon Matjon “Siena bo‘yida qush bozori” she‘rida shoir qafasga solingan qushlar obrazi orqali ozodlik va erkinlik tushunchalari ifoda qilinadi. Bugungi davr adabiy muhiti yorqin namoyondasi bo‘lmish shoir Zikrilla Ne’mat ijodida ham bir ne’cha bor qush obraziga murojaat qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan bolalar uchun yozilgan to‘plamlarda ushbu obrazga juda keng e’tibor qaratilgan. “A’lochilar alifbosi” to‘plamida yo‘rg‘a tuvaloq, sa’va, saqoqush, zag‘izg‘on, hakka, tovlanma to‘ti, chittak, g‘oz singari turli qushlar obrazlari orqali insonga xos bo‘lgan ba’zi xislatlar ochib beriladi. Xususan to‘plamdan o‘rin olgan “Yo‘rg‘a tuvaloq” she‘rida qushning xarakteristikasi ochib beriladi: u cho‘llarda yashaydi, yaxshi ucha olmaydi, yo‘rg‘alab tog‘-qirlardan oshib o‘tadi. Bundan tashqari juda qo‘rqoq bo‘lib, biror sharpa sezsa qochib qoladi. She‘rning oxirgi bandida shoiro‘zi aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani aytib o‘tadi:

El boshiga ish tushsa,
Hadeb noluvchi bo‘lmang.
Yo‘rg‘a tuvaloq kabi,
Qochib qolguvchi bo‘lmang.[1;23]

Eng ahamiyatlisi shundaki xalqning boshiga biror kulfat kelganda qo‘lidan biror yumush kelmaydigan, biror vazifani eplab bajara olmaydigan insonlar turi birinchi bo‘lib norozilik qilishni boshlaydi. Mana shunday insonlarni yaxshi uchishni eplay olmaydigan yo‘rg‘a tuvaloqqa qiyoslanganligi she‘rda yaqqol seziladi. Bunday toifadagi insonlar og‘ir vaziyatda yoki qochib qolishadi, yokida o‘zlarini muammodan uzoqda tutishadi. Bu esa ularning yo‘rg‘a tuvaloq singari qo‘rqoq ekanliklaridan dalolat beradi. Ushbu she‘r orqali insongs xos bo‘lgan qo‘rqoqlik obrazi qush obrazi orqali tavsiflangan. Qo‘rqoq inson yo‘rg‘a tuvaloqqa qiyoslangan.

Shoirning “Besh baho olgan kunim” to‘plamida ham qush obrazi qatnashgan she‘rlarni uchratish mumkin. Jumladan, tuyaqush, qarg‘a, musicha, lochin, olashaqshaq, bulbul, chumchuq, mayna, qarqara, qaldirg‘och, qarchig‘ay, to‘ti singari qushlar haqida she‘rlar uchraydi. Ularning ayrimlari insonga xos yaxshi xislat va yomon illatlarni bolajonlarga yetkazib berishga xizmat qiladi. Ayrimlari esa qushlar haqidagi qiziqarli bilimlarni she‘riy tarzda ifodalanganligi bois ma‘lumotlarni yodda saqlashni osonlashtiradi.

Bilamizki, shoir ijodida vafo, vatanparvarlik, o‘z yurtiga sadoqat singari tushunchalar yo‘g‘rilgan she‘rlar keng o‘rin egallaydi. Shunday she‘rlardan yana biri to‘plamdan o‘rin egallagan “Chumchuq” she’ridir. She’rning dastlabki bandlarida laylak, oqqush, turna singari nisbatan yirik va go‘zal qushlar qahraton qish kelishi bilan janubga - issiq o‘lkalarga uchib ketishadi. Jussasi mittigina bo‘lgan chumchuq esa sovuq jonidan o‘tsa ham, o‘z yurtida qoladi. Xuddi shoir A. Oripov “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she‘rida ta’kidlagan qahraton sovuqda ham o‘z o‘lkasini tashlab ketmaydigan eskimoslar singari ular ham o‘z zaminiga sodiq:

Sadoqatda hech bir qush,
Chumchuqvoyga yetmaydi.
Sovuq jondan o‘tsa-da,
Bizni tashlab ketmaydi. [2.56]

Xalqimizda “musichayi begunoh”, “musichayi beozor” degan iboralar mavjud. Bu ibora asosan bir necha bor yomon ish qilib qo‘yib, yana o‘zini aybi yo‘q qilib ko‘rsatadigan, mug‘ombir kimsalarga nisbatan ishlatiladi. Mana shu iboradagi mazmun-mohiyat shoirning “Musichayi begunoh” she‘rida ochib beriladi. Tabiiyki she’rdagi bosh obraz musichadir:

Musichayi begunoh deyishar musichani,
Ammo men rad etaman, bu eski “musiqa”ni.
Ko‘z oldimda necha bor gunoh qilgan musicha,
Lekin o‘zin begunoh ko‘rsatadi o‘zicha.
Tunov kuni u zang‘ar bilasizmi netibdi?
Tovuqlarga sepilgan donlarni yeb ketibdi. [2:54]

She’r majoziy ma’noga ega. Aslida musicha xato ish qilib, ammo insonlar ko‘zi oldida o‘zini jabrlangandek tutuvchi ikkiyuzlamachi insonlar timsoli. Shoir she’rda bunday insonlarga nisbatan munosabatini *“men bu eski musiqani rad etaman”* shaklida namoyon etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir obraz qaysi turdagi asarda bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zining

g‘oyaviy ahamiyatiga ega. Jumladan shoir Zikrilla Ne’mat ijodida ham bundan mustasno emas. Qushlar obrazlari tufayli shoir turli qarashlarini ochib berishga harakat qiladi. Bunda ijodkor har bir qushning harakat va xarakter xususiyatidan kelib chiqib, turli mazmundagi xarakterli insonlar ramzi sifatida tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[2] Ne’mat Z. Ayiqning nabirasi. — Toshkent: Muharrir, 2021.

[3] Неъмат З. Беш баҳо олган куним. — Тошкент, 2012.

[4] Ziyouz.com sayti ma’lumotlari. — Elektron manba.

[5] Vikipediya — ochiq ensiklopediya. — Elektron manba.